

Ўз вақтида огоҳлантириш, қутқариш ва ёрдам бериш асосий вазифамиздир!

Vaziyat

2024 йил
16 май
№ 20 (961)



Ўзбекистон Республикаси Фавқулдда вазиятлар вазирлиги нашри

Газета 2004 йил 7 майдан чиқа бошлаган



ВАЗИФАЛАР БЕЛГИЛАБ ОЛИНДИ

Тошкент вилоятининг Бўстонлиқ туманида Фавқулдда вазиятлар вазири генерал-майор А.Қўлдошев раҳбарлигида тегишли вазирлик ва идоралар раҳбарлари билан биргаликда гидрометеорологик ва геологик хавфли жараёнлар, сел, сув тошқини, кўчки ҳодисалари билан боғлиқ фавқулдда вазиятларнинг олдини олишга тайёргарлик ҳолати бўйича ўрганиш ишлари олиб борилди.

Ўрганишлар давомида тошқин сувлари ва сел оқимларини хавф-хатарсиз ўтказиб юборишни таъминлаш, қор ва ер кўчкиси ҳодисалари хавфини камайтириш бўйича кечиктириб бўлмайдиган вазифалар муҳокама қилинди.

Шунингдек, мутасаддиларга кун тартибидаги масалалар юзасидан зарур кўрсатма ва тавсиялар берилиб, навбатдаги вазифалар белгилаб олинди.

Фавқулдда вазиятлар вазири генерал-майор А.Қўлдошев бошчилигида бир гуруҳ ҳарбий хизматчилар ҳамда масъуллар уруш ва меҳнат фахрийларининг хонадонларида бўлдилар.

ҒАМХЎРЛИК ВА ЭЪТИБОР

Учрашув давомида давлатимиз раҳбарининг байрам табриги ўқиб эшиттирилди. Шунингдек, бир марталик пул мукофоти тантанали равишда топширилди. Байрамона руҳда кечган учрашувлар фахрийлар қалбига чексиз қувонч бағишлади. Улар давлатимиз раҳбари томонидан кўрсатилаётган юксак эътибор ҳамда ғамхўрликдан жуда мамнун бўлиб, улкан миннатдорлик изҳор қилдилар.

Фавқулдда вазиятлар вазири ўринбосари полковник Х.Алибаев бошчилигидаги ишчи гуруҳ Сирдарё вилояти ФВБда бўлиб, ўрганиш ишларини амалга оширди.

ТАҲЛИЛ – ЮКСАЛИШ МЕЗОНИ

Ўрганиш ишлари давомида ходимларнинг жисмоний тайёргарлигини ошириш, одамлар ҳаётига хавф солувчи ва давлат ҳамда жамоат мулкига зарар етказувчи, эҳтиётсизлик ёхуд бепарволик оқибатида келиб чиқадиган ёнғинларнинг олдини олишга қаратилган кенг кўламли профилактик тадбирларни мунтазам ташкиллаштириш лозимлиги қайд этилди.

Шунингдек, ёнғин-қутқарув экипажларининг жанговар шайлиги

ҳамда махсус техникалар ҳолати кўздан кечирилди. Шахсий таркибга яратилган шарт-шароитлар билан яқиндан танишилди. Сирдарё, Сайхунобод, Оқолтин ва Сардоба туманлари ФВ бўлимлари шахсий таркиби билан учрашувлар ўтказилиб, ҳарбий хизматчилар ва хизматчилар билан яқиндан мулоқот олиб борилди.

Учрашувлар жараёнида аниқланган камчиликларни бартараф қилиш юзасидан масъулларга кўрсатмалар берилди.



Саҳифани Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.



ФВВ ХОДИМИ – ҒОЛИБЛАР САФИДА

Тошкент шаҳрида каратэ спорт тури бўйича "Евро Осиё" очиқ чемпионати ўтказилди. Чемпионатда 10 дан ортиқ давлатдан номдор спорт усталари иштирок этдилар.

Мазкур мусобақада Қашқадарё вилояти ФВВ ходими хизматчи Рўзимурод Умбаров катталар ўртасида 70 кг. вазн тоифасида 1-ўринни эгаллаб, Осиё чемпионлик камарини қўлга киритди.

Ҳамкасбимиз Рўзимурод Умбаровни ушбу муваффақият билан қизғин муборакбод этиб, келгусида ташкил этиладиган навбатдаги мусобақаларда ҳам омад ва зафарлар тилаб қоламиз.

“SHAXMAT” MUSOBAQASI

FVV akademiyasi kursantlari o'rtasida sportning shaxmat turi bo'yicha musobaqa o'tkazildi.

Natijalarga ko'ra, 3-o'rinni 2-batalyon kursanti Quvonch Istamov, 2-o'rinni 2-batalyon kursanti Jahongir Toirov, 1-o'rinni 3-batalyon kursanti Abdumajid Abdujabborov egalladi. Harbiy xizmatchilari o'rtasida esa kapitan Muhammad Tursinboyevga 3-o'rin, mayor Yashnar Gulyamovga 2-o'rin, podpolkovnik Sayfiddin Jumayevga 1-o'rin nasib etdi.

Jasur YARBEKOV,
Harbiy va jismoniy tayyorgarlik kafedrasini o'qituvchisi, kapitan.

UCHRASHUV

Namangan viloyati FVB tomonidan Chust tumanidagi yoshlar bilan uchrashuv o'tkazildi.

Unda boshqarma boshlig'i o'rinbosari polkovnik Oybek Tashtemirov va tuman FV bo'limi boshlig'i podpolkovnik Tursunali Jo'rayev tomonidan tumaning 6-ixtisoslashtirilgan maktabida 9–11-sinf o'quvchilari bilan davra suhbatini o'tkazilib, yoshlarning huquqiy ongini shakllantirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha tushunchalar berildi.

Maktab o'quvchilariga “Qutqaruvchilik – sharaflilik kasbi” mavzusida FVV akademiyasi hamda Temurbeklar maktabida yaratilgan shart sharoitlarni o'zida mujassam qilgan videoroliklar namoyish qilindi.

Hakimjon XOJIMATOV,
Namangan viloyati FVB bo'lim boshlig'i, kapitan.

Abduqodir TURG'UNOV,
Chust tumani FV bo'limi P va NB kichik inspektori, katta serjant.



SERTIFIKATLAR TOPSHIRILDI

Qashqadaryo viloyati FVB Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi tomonidan viloyat hududidagi otaliqqa olingan yoshlar ishtirokida ikki bosqichdan iborat o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi.

Tadbir davomida tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar yuzaga keldanda yoki sodir bo'lish xavfi tug'ilganda to'g'ri harakatlanish borasida ma'lumotlar berildi va mavzularga oid videoroliklar namoyish etildi.

Shuningdek, yoshlar qutqaruv otryadi va yong'in-qutqaruv qismining maxsus asbob-anjomlari va texnikalari bilan yaqindan tanishtirilib, favqulodda vaziyatlarning turlari, ularning oldini olish hamda bartaraf etish ishlari amaliy mashqlar orqali ko'rsatib berildi.

O'quv mashg'ulotlari yakunida otaliqqa olingan yoshlarga boshqarma rahbariyati tomonidan “Favqulodda vaziyatlar targ'ibotchisi” sertifikatlari topshirildi.

Javlon RAHMONOV,
Qashqadaryo viloyati FVB Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi o'qituvchisi.



EKO FESTIVAL

To'raqo'rg'on tumani FV bo'limi tomonidan “Ibrat” mahallasidagi 7-umumta'lim maktabida “Ekologiya va biz” shiori ostida festival tashkil etildi. Unda ishtirokchilarga ekologiya va atrof-muhitni asrab-avaylash to'g'risida ma'lumotlar berildi.

Qolaversa, o'quvchilarning qo'l mehnati bilan yasalgan ijodiy ishlar, chizgan rasmlari, jonli burchak va ko'rgazmali qurollari namoyish qilindi va hakamlar tomonidan baholandi. G'oliblarga esdalik sovg'alari topshirildi.

Anvar ARIPOV,
To'raqo'rg'on tumani FV bo'limi bo'linma boshlig'i, mayor.

AMALIY TARZDA

Sariosiyo tumanida bahor-yoz oylarida sel, suv toshqinlari va ko'chki xavf mavjud hududlarda aholi xavfsizligini ta'minlash yuzasidan FVDT xizmatlari ishtirokida daryo qirg'oqlarini mustahkamlash bo'yicha maxsus-taktik o'quv mashqlari tashkil etildi.

Saf ko'rigida jami 60 ta muhandislik texnikalari va 227 nafar shaxsiy tarkib ishtirok etdi. Ayni vaqtda tumandagi soy va daryolar, sel yo'llari qirg'oqlarini mustahkamlash, o'zanlarini tozalash ishlari amalga oshirilmoqda hamda chiqarilayotgan qum-shag'allar ichki yo'llarni ta'mirlashga sarflanmoqda.

J.JURAYEV,
Surxondaryo viloyati FVB axborot xizmati boshlig'i, kapitan.

G'AVVOSLIK SINOVI

Namangan viloyati Davlatobod tumanidagi ochiq suv havzasida Namangan, Andijon hamda Farg'ona viloyatlari FVBlarining yong'in-qutqaruv otryadi suvda-qutqaruv guruhi g'avvos-qutqaruvchilarining malakasini mavsum oldidan shahodatlash ishlari olib borildi.

Unda suvda-qutqaruv guruhlarining g'avvos-qutqaruv-

chilariga sho'ng'ishga ruxsat berish, chuqurliklarni belgilash, g'avvoslik sho'ng'ishlari, suvda qutqaruv guruhi shaxsiy tarkibining amaliy hamda nazariy bilimlari bo'yicha sinovlar qabul qilindi.

Akmajon O'RINBOYEV,
Namangan viloyati FVB boshlig'ining birinchi o'rinbosari — Shtab boshlig'i, polkovnik.



O'QUV MASHQI

Buxoro viloyati FVB OYXTTEB xodimlari tomonidan “Gazli” gazni qayta ishlash zavodida “Tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda obyekt rahbariyati va fuqaro muhofazasi tizimlarining FVDT xizmatlari bilan hamkorlikdagi harakatlari” mavzusida maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

Rustam BOBOYEV,
Buxoro viloyati FVB OYXTTEB bosh inspektori, kapitan.

SEMINAR

Qashqadaryo viloyati FVB tashabbusi bilan Qarshi shahridagi 17-, 34-sonli maktablarda mutaxassislar tomonidan eshitish va nutqida nuqsoni bo'lgan shaxslar va pedagog-xodimlar uchun o'quv seminari tashkil etildi.

Unda UNISEF bolalar xayriya jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi va viloyat boshqarmasi mas'ullari ishtirok etdilar.

Seminar ta'lim muassasalari, ayniqsa, inklyuziv ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilari hamda ko'p sonli mehnat jamoasining favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish borasidagi bilim va ko'nikmasini oshirishga qaratildi.

Habiba YAKUBOVA,
Qashqadaryo viloyati FVB HFXO'M o'qituvchisi.



MA'RIFIY TADBIR

Namangan viloyati FVB harbiy xizmatchi va xizmatchilarining farzandlari ishtirokida qo'g'irchoq teatriga tashrif uyushtirildi. Unda bolajonlar dastlab teatrdagi qo'g'irchoqlar ko'rgazmasi bilan tanishdilar. Shuningdek, “Alisherbek va Husayn” spektaklini tomosha qilishdi.

Islomjon MELIBOYEV,
Namangan viloyati FVB axborot xizmati xodimi.



O'RIMGA TAYYORGARLIK

To'raqo'rg'on tumani “Oqtosh” MFY hududida joylashgan “Agroservis MTP” MCHJ binosida MTP va fermerlarga qarashli 19 ta kombaynning yong'in xavfsizligi holati o'rganib chiqildi. 38 nafar operatorga favqulodda vaziyat va yong'inlarning oldini olish bo'yicha yo'riq-nomalar berildi.

Fermer xo'jaligi rahbarlariga g'alla o'rini tugatilgandan so'ng qolgan somon va uning poyalariga tozalash maqsadida o't qo'yib yubormaslik lozimligi, bunga yo'l qo'yg'an shaxslarga nisbatan belgilangan tartibda jazo choralarini qo'llanilishi aytib o'tildi.

Abdurahmon MURODOV,
To'raqo'rg'on tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, mayor.



Vatanga xizmat yo'lida ajdodlarimizga munosib bo'lib kelayotgan yoshlarimiz bugun ko'pchilikni tashkil qiladi. Sadoqati va matonati ila o'z manfaatidan xalqining manfaatini ustun deb bilgan, xalq xizmatiga kamarbasta bo'lgan o'g'lonlarimizning xizmatlari ulkan tahsinga loyiq, albatta.

KASBIM-FAXRIM

FVV akademiyasi ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar bo'limi boshlig'i kapitan Firdavs Karimov ham ana shunday ofitserlardan biri. Suhbatdoshimiz bilan muloqotimiz harbiylik kasbi, Akademiya va ushbu oliy harbiy ta'lim dargohida olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar xususida kechdi.

– Harbiylik sohasiga qiziqishingiz qachondan boshlangan yoki oila a'zolaringiz orasida harbiylar bo'lganmi?

Har bir yigit kishi bolaligidan o'z oldiga maqsad qo'yishi tabiiy hol. Men harbiy bo'lishni orzu qilganman. Bunga sabab, amakim ham harbiy sohada faoliyat olib boradilar. Aynan qutqaruvchilik sohasini tanlaganimning sababi bobom ham shu sohaning jonkuyar vakillaridan biri bo'lganlar. Bobom Hamid ota Karimov Boysun tumanida qutqaruvchilik kasbida uzoq yillar sadoqat bilan fidokorona xizmat qilganlar. Boysun tumanida ushbu sohaning rivojlanishi uchun o'z hissalarini qo'shib kelganlar. Men yoshligimda bobomning fotoalbomini tomosha qilar ekanman, u kishining shijoati, tumanda amalga oshirgan ijobiy ishlari va jonkuyarliklarini ko'rib hayratda qolganman.

Shuningdek, bobom jamoat ishlarida, obodonlashtirishga oid tadbirlarda faol bo'lganlar. Masalan, Boysun tumanidagi bir mahallaning katta qabristonini o'z mablag'lari hisobidan panjara bilan o'raganlar, keyin ko'priklar qurdirganlar.

Qishlog'imga, mahallamga borganimda, bobomning ismini hurmat bilan tilga olganlarida, beixtiyor faxrlanib ketaman.

– Akademiyada amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlar mazmuniga to'xtalsangiz...

Akademiyada sog'lom ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy muhitni qaror toptirish maqsadida, turdosh oliy harbiy ta'lim muassasalari bilan samarali hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Hamkorlik asosida belgilangan bandlar bo'yicha ko'rik-tanlovlar, musobaqalar va konferensiyalar o'tkazib kelinmoqda. Shu jumladan, yaqinda FVV Akademiyasida oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlari o'rtasida o'tkazilgan "Eng yaxshi yosh kitobxon" ko'rik-tanlovida barcha kursantlarimiz faol qatnashdilar. Shu bilan birga, akademiya va Toshkent shahrida joylashgan to'qqista kinoteatr bilan memorandumlar imzolangan.



Mazkur memorandumlar asosida akademiya teatrlardan taniqli aktyor va aktrisalalar, so'z ustalari hamda bir qator san'atkorlar va ijodkorlar tashrif buyurib, harbiy xizmatchilarimiz, kursantlarimizning kayfiyatlarini ko'targan holda, ma'naviy-madaniy dasturlarni namoyish qilib kelmoqdalar.

Shuningdek, akademiya bilan Respublika ma'naviyat-ma'rifat markazi, yozuvchilar uyushmasi, Toshkent shahar yoshlar ittifoqi kabi tashkilotlar bilan samarali hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

Jumladan, O'zbek milliy akademik drama teatri, Muqimiy nomidagi musiqali drama teatri, Alisher Navoiy nomidagi akademik katta teatrini misol qilish mumkin. Kursantlarimiz yaqinda QVZ Assosiyatsiyasi tomonidan QVZ primer ligasining ikkinchi mavsumida yarim finalgacha ishtirok etishdi. 2023-yilda akademiya "FIREMAN" jamoasining a'zosi leytenant Ramziddin Temirov "Eng quvnoq yigit" nominatsiyasi bilan taqdirlandi.

Akademiya harbiy xizmatchilari va kursantlari nafaqat ma'naviy-ma'rifiy ko'rik-tanlovlarda, balki xalqaro va respublika miqyosida o'tkazilayotgan musobaqalarda ham munosib ishtirok etib, faxrli o'rinlarni egallab kelishmoqda. Masalan, sportning Armrestling turi bo'yicha akademiya jamoasi O'zbekiston kubogi sohibi bo'ldi, qolaversa, sportning yugurish turi bo'yicha "Men g'olibman!" shiori ostida o'tkazilgan bellashuvlarda faol qatnashdilar.

– Mamlakatimiz yoshlarini yot g'oyalar ta'siridan himoyalash uchun qanday chora-tadbirlarni tashkil qilish lozim deb o'ylaysiz? Bu borada qanday ishlar amalga oshirilmogda?

Bu haqda gapirganda, e'tiborni internet yoki ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan xabar va ma'lumotlar oqimiga qaratamiz, albatta. Internetdan ikki xil yo'lga foydalansa bo'ladi: ijobiy hamda salbiy. Hozirgi kunda yoshlarimiz asosan taqiqlangan saytlarga bilib-bilmasdan kirish orqali o'zlarining ongini zaharlab, o'zligini yo'qotib, ming afsuski, jinoyatga qo'l urmoqdalar.

Shuning uchun ham biz har hafta juma kuni o'tkaziladigan "Ma'naviyat va ma'rifat" darslarida qator mavzularda mashg'ulotlar tashkil qilib kelmoqdamiz. Mazkur darslarda diniy idoralar, huquqni muhofaza qilish organlaridan mutaxassislarni taklif etgan holda, profilaktik-targ'ibot ishlarini olib boramiz.

Qayd etish kerakki, bu yil – "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlashi yili", deb e'lon qilinganligi, ayniqsa, ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlar yo'nalishida ulkan ishlar amalga oshirish lozimligini taqozo etadi.

Shunday ekan, Yangi O'zbekistonda davlatimiz rahbari tashabbuslari bilan sohada olib borilayotgan islohotlar hamda yaratib berilayotgan ulkan shart-sharoitlar hamda keng imkoniyatlardan oqilona foydalanib, yoshlarimizning jonajon Vatanimizning munosib va mard o'g'lonlari bo'lib yetishishlarida zimmamizdagi mas'uliyatli vazifalarni sidqidildan bajarishimiz lozim.

– Mazmunli suhbatingiz uchun tashakkur!

– Salomat bo'ling.

Rushana ROZABOYEVA,
O'z.JOKU harbiy
jurnalistika talabasi.

QURILISHDA YONG'IN ...

Sirdaryo viloyati FVB tomonidan binolarda ishlayotgan ishchi-xizmatchilarning yong'in va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilishlarini ta'minlash, tashkil etilgan vaqtinchalik yashash joylarida sanitariya talablariga rioya qilinishi yuzasidan profilaktik targ'ibot ishlari olib borilmoqda.

Shu bilan birgalikda, qurilish jarayonlarini olib borishda mustahkamlik va qurilish me'yoriy qoidalariga qat'iy rioya qilgan holda ish faoliyatini olib borish bo'yicha pudratchilar va qurilish tashkilotining mutasaddilariga yo'riqnomalar berilmoqda.

Murod RAVUBJONOV,
Sayxunobod tumani FV bo'limi P va NB katta inspektori, katta leytenant.
Shahzodbek NOSIROV,
bosh inspektor, katta leytenant.

CHEGARA POSTIDA

Qashqadaryo viloyati Nishon tumani "Qarshi-Kerki" Davlat chegara-bojxona postida "Sanksiyalanmagan ionlashtiruvchi nurlanish manbalari topilishi bilan bog'liq avariyaning bartaraf etishda FVDT xizmatlari va huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning hamkorlikdagi harakatlari" mavzusida maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

Unda mutaxassislar tomonidan ikkilamchi qorametal ortilgan yuk avtomobilini nazoratdan o'tkazish vaqtida aniqlangan shartli radiatsion manbani xavfsiz joyga o'tkazish va tegishli xizmatlarga xabar qilish, uning zarar yetkazish masofasini aniqlash tartiblari ko'rsatib o'tildi.

A.ASADULLAYEV,
Qashqadaryo viloyati FVB bo'lim boshlig'i,
podpolkovnik.

PROFILAKTIKA

Namangan viloyati Davlatobod tumani FV bo'limi tomonidan "ANGLESEY FOOD" MCHJ xorijiy korxonasi qarashli "Afsona" marketida yong'inlarning oldini olish, is gazidan zaharlanish, gaz va havo aralashmasining chaqnashi, boshqa tusdagi favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha profilaktik tadbir o'tkazildi.

Sardorbek RAHIMOV,
Davlatobod tumani FV bo'limi boshlig'i
o'rinbosari, podpolkovnik.

SUV – HAYOT MANBAI



Jizzax shahrida bugungi kunda 374 ta yer osti suv olgichlari mavjud bo'lib, ularning soz holatda bo'lishi favqulodda vaziyatlar bo'limi xodimlari tomonidan doimiy ravishda o'zgarib bormoda.

Joriy yilning o'tgan davri mobaynida shahar FV bo'limi tomonidan o'tkazilgan o'rganishlar davomida bir nechta yer osti suv olgichlari qarovsiz va nosoz holatdagi, ba'zilar esa yo'l qoplamalari ostida qolib ketganligi aniqlandi. Kamchiliklar yuzasidan tegishli hokimlik va idoralarga axborotnoma va taqdimnomalar kiritilib, mutaxassislar tomonidan kamchiliklarni joyida bartaraf etilishiga erishildi.

Iftixor UMAROV,
Jizzax viloyati FVB axborot xizmati rahbari, kapitan.
Azamat SANAQULOV,
Jizzax shahar FV bo'limi qism boshlig'i, mayor.

“ENG YAXSHI YOSH KITOBXON”



Toshkent shahar FVB tomonidan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ittifoqi Toshkent shahar kengashi bilan hamkorlikda Toshkent shahar FVB tarkibiy tuzilmalari yosh harbiy xizmatchilari o'rtasida “Eng yaxshi yosh kitobxon” ko'rik-tanlovi o'tkazildi.

Ishtirokchilar o'rtasida kechgan bahslarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi binosida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'linmasi kichik inspektori leytenant Vohid Sariboyev g'olib bo'lib, respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi.

Dilshod UMAROV,
O'zbekiston Respublikasi
Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi
binosida yong'in xavfsizligini
ta'minlashni tashkil etish bo'linmasi
kichik inspektori, serjant.

ZARUR SABOQ

Zomin tumani “yoshlik” MFY da “Termit hasharotlari tarqalgan hududlarda monitoringlar o'tkazish, termit hasharotlari tarqalgan hududlar chegaralarini belgilash va oldini olish tadbirlari” mavzusida seminar o'tkazildi.

Seminarda viloyat hududida yashovchi aholi xonadonlarining yog'och konstruksiyalari zararkunanda termitlar bilan zararlanayotganligi, termit tarqalgan hududlarni aniqlash, ular tarqalishining oldini olish, ya'ni yem-xo'raklardan foydalanish, termitdan zararlangan yog'och materiallarini ishlatmaslik va zararkunanda termitlarni yo'qotish yuzasidan tinglovchilar o'zlarini qiziqtirgan savollariga javob olishdi hamda mutaxassis-xodimlar tomonidan tinglovchilarga zararkunandalarga qarshi profilaktik tadbirlarga oid eslatmalar tarqatildi.

Tadbir yakunida tumanning “Peshog'ar” MFY hududidagi ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga kiruvchi xonadonlarga borilib, mazkur xonadonlar zararkunanda termitlardan zararlanganligini hisobga olgan holda, atrofdagi boshqa uylarga tarqalishining oldini olish maqsadida termitlarga qarshi zaharli yem-xo'raklar beg'araz tarzda o'rnatib berildi va xonadon egalari termitlarga qarshi yem-xo'raklarni o'rnatish yuzasidan qo'shimcha ko'rsatmalar berildi.

S.IKMATOV,
Jizzax viloyati FVB xodimi, 1-darajali
serjant.

TASHVIQOT

Ko'kdala tumani FV bo'limi tashabbusi bilan tumanning 2-sektor yoshlari uchun “Yoshlar bilan bir kun” loyihasi doirasida “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri o'tkazildi.



Unda mutaxassislar va yoshlar o'rtasida erkin muloqot tashkil etilib, qutqaruvchi kasbining nufuzi va mashaqqatlariga oid fikr va mulohazalar bildirildi. Qutqaruv xizmatiga oid yong'in-qutqaruv texnikalari va ulardagi zarur asbob-anjomlar namoyishi bo'lib o'tdi. Yoshlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi. Shuningdek, yangi bunyod etilayotgan ko'p qavatli uy-joylar qurilishida quruvchi

va mas'ullar o'rtasida mehnat muhofazasi, yong'in xavfsizligi talablariga rioya etish yuzasidan targ'ibot va tushuntirish ishlari olib borildi. Chaqnash, is gazidan zaharlanish, yong'in xavfsizligi qoida talablariga rioya etish bo'yicha yo'riqnomalar berildi.

Azimurod LAPASOV,
Ko'kdala tumani FV bo'limi inspektori,
kapitan.

Har bir o'g'il farzandning dunyoga kelishi va kamol topishi otana uchun chinakam ma'noda faxr-iftixordir. Chunki dunyoga kelgan o'g'lon kelajakda oilasi va Vatanning haqiqiy himoyachisi bo'ladi. Qaddini tik tutgan, dovyurak, yuksak bilim-malakaga ega, bilagi baquvvat o'g'lonlarni dushman aslo yenga olmagay...

OLY MAQSAD YO'LIDA

FVV Akademiyasi 5-batalyon kursanti Sadridin Xudoybaxshev ham ana shunday yurt farzandlaridan biri.

Sadridin bilan suhbatimiz jarayonida qahramonimizning o'z oliy maqsadi yo'lida qat'iyatli va sobitqadam ekanligi yanada yaqqol namoyon bo'ldi.

– Harbiylik kasbini tanlashingizga sabab nima? Havasmi yoki zarurat?

– Bu savolingizga ikkalasi ham deb javob bergan bo'larдим. Chunki, harbiylik kasbi, avvalo, har kim orzu-havas qiladigan vazifa, ikkinchidan, Vatanni himoya qilish har bir yigit uchun muqaddas burch.

Aynan qutqaruvchilik sohasiga kirib kelishimga onamning hissasi katta bo'lgan. Onam kelajagim uchun qutqaruvchilik sohasida yetarli darajada bilim va ko'nikmalarni bergan. Onamning ko'zlarida bir insonning hayotini saqlab qolish, ofatlarni bartaraf etishdagi mehnatlari buyuk ekanligini, bu sohadagi ulkan ma'suliyatni ko'rar edim.

Harbiylik kasbiga qiziqishim bolalik paytlarimdan boshlangan. Oilamizda ham onam harbiylar, ularning tarbiyalarini olib ulg'ayganman. Albatta, harbiy ruhda tarbiyalanishning gashti boshqacha edi. Bolaligimdan televizorlarda harbiy ko'rsatuvlar ko'rib, harbiylar hayoti bilan tanishib, ularga havas qilganman.

– Akademiyada kursantlar uchun qanday shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan?

– Yurtboshimiz tomonidan biz yoshlarga yaratilayotgan sharoitlar ulkan e'tirofga munosib, albatta. Zamonaviy texnologiyalar, yangi texnikalar, sport anjomlari, malakali mutaxassislar, yangi kutubxona hamda kompyuterlar... Men bunday imkoniyatlardan unumli foydalanib kelmoqdaman va qator yutuqlarga erishmoqdaman. 2019 – 2020-yillarda Akademiya fan olimpiadasi bosqichida ingliz tili fanidan birinchi o'rinni egalladim. 2021-yil Akademiya miqyosida o'tkazilgan fan olimpiadasida informatika fanidan faxrli birinchi o'rinni egallaganman.

Bundan tashqari, Akademiya ichki va tashqi konferensiyalarida, xalqaro kanferensiyalarida ishtirok etib, ma'ruzalar o'qiganman. Kompyuter bilan ishlash sevimli mashg'ulotim. Bu orqali qator ofis dasturlarini o'rganib boraman. Sport bilan muntazam shug'ullanaman. 2020-yil Akademiya miqyosida sportning boks turi bo'yicha 80 kg. vazn toifasida uchinchi o'rinni egallaganman.

– Kasbingiz sirlarini puxta egallashingizda siz ishtirok etayotgan amaliy mashg'ulotlar qay darajada muhim?



– Ustozlarimiz bizga, avvalo, nazariy o'rgatishadi, keyin esa bilimlarimizni amaliyotga tatbiq etamiz. Akademiyamiz ichki va tashqi hududida o'quv mashg'ulotlari o'tkaziladi. Masalan, yong'in qanday sodir bo'ladi? Amaliyot haqiqiy vaziyatga yaqinlashtirilgan holda tashkil qilinadi. Biz holatni o'z ko'zimiz bilan ko'rib, qanday chora-tadbirlarni amalga oshirishni o'rganamiz. Yong'inni qayerdan o'chirish kerak, odamlarni qanday qutqarish kerak, mana shunday savollarga javob izlab, ularning yechimini amalda bajaramiz.

Men bitiruvchi kursman. Har bir kursant bitirish arafasida davlat imtihonlariga tayyorgarlik ko'rib, diplom ishi tayyorlaydi. Men ham ustozim rahbarligida Navoiy don aksiyadorlik jamiyati faoliyati uchun “Yong'in xavfi tahlili va uning oldini olishning samarali yo'llarini ishlab chiqish” bo'yicha takliflar ishlab chiqqanman. Ilmiy rahbarim – texnika fanlari doktori Isroil Talibjanov. Korxonada chang hosil bo'lishi portlash xavfini oshiradi. Shunga ko'ra, men o'z loyihamda bug'doyni chiqindilardan tozalash uchun yangi apparatlardan foydalanishni tavsiya qilganman. Shuningdek, biz sun'iy intellekt asosida jarayonni robotlar tomonidan boshqarish taklifini ishlab chiqqanmiz.

Umuman olganda, maqsadim oliy. U ham bo'lsa, ona-Vatanimga, xalqimga munosib farzand bo'lish va uning tinchligi, taraqqiyoti va farovonligiga hissa qo'shish.

– Mazmunli suhbatingiz uchun sizga ulkan minnatdorlik bildirgan holda, oliy maqsad yo'lida bardavomlik va ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz.

– Rahmat!

O'zJOKU harbiy jurnalistika talabasi Ruxshona Soibjonova suhbatlashdi.

Ofatlardan talofatlarsiz chiqishning eng samarali omillaridan biri bu – aholini, boshqaruv bo'g'inlarining barcha tarkibini yong'inlar va boshqa tUSDagi favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish, ularning oqibatlarini bartaraf etishda oldindan tayyorlashdir.

FUQARO MUHOFAZASI – BOSH MAQSADIMIZ

Ayni shu maqsadda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar FVBlarida faoliyat yuritayotgan Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazlari favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi, tuman va shahar boshqaruv, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, mansabdor shaxslar va mutaxassislarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi yo'nalishida tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, aholining barcha qatlamini tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanishga tayyorlash, bu borada o'quv-uslubiy adabiyotlarni ishlab chiqish va tarqatish, targ'ibot-tashviqot tadbirlarini tashkillashtirish bilan bog'liq sa'y-harakatlarni amalga oshirib kelmoqda.

Jumladan, Chirchiq shahar Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi xodimlari tomonidan tasdiqlangan rejalarga muvofiq, mahalla fuqarolar yig'inlaridagi ish bilan band bo'lmagan aholi ishtirokida "Is gazidan zaharlanish va gaz-havo aralashmasi chaqnashi natijasida yuzaga keladigan favqulodda vaziyatlarning oldini olish", "Qor ko'chkisi sodir bo'lganda aholining to'g'ri harakati", "Sel, suv toshqini hodisalaridan muhofazalanish tadbirlari", "Yong'inlarning oldini olish va yong'inlar vaqtida aholining to'g'ri harakatlari", "Zilzila hodisasi va unga oldindan tayyorgarlik" kabi mavzularda mashg'ulotlar tashkillashtirilib, aholining fuqaro muhofazasi sohasiga oid nazariy va amaliy bilimlari mustahkamlanmoqda. Shuningdek, xonadonma-xonadon yurgan holda, seminarlar, davra suhbatlari va profilaktik tadbirlar o'tkazilib, ushbu tadbirlar davomida aholiga mavzuga oid ko'rgazmali vositalar, uslubiy qo'llanmalar tarqatilmog'ida.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan fan-texnika asri o'qitish tizimida ham zamonaviy texnologiyalar va usullarni qo'llashni taqozo etmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, hozirda Markazda yaratilgan qulay sharoit va imkoniyatlardan oqilona foydalanilib, tinglovchilarga sifatli, keng qamrovli nazariy va amaliy bilimlar berishga asosiy e'tibor qaratilmog'ida.

Raqamlarga to'xtaladigan bo'lsak, o'tgan o'quv yili davomida rejadagi 127 nafar o'rniga, amalda 131 nafar tinglovchi o'qitilib, reja 103 foizga bajarilgan. 4 tadan qo'mondonlik-shtab va maxsus-taktik o'quv mashqlarida ishtirok etilib, o'qitilganlarga tabiiy va texnogen tUSDagi favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish bo'yicha bilimlar berilgan.

Albatta, bu kabi tadbirlar hozirda izchil davom ettirilmoqda. Amalga oshirilayotgan o'qitish-targ'ibot ishlaridan maqsad bitta – u ham bo'lsa, yurtimiz aholisi va hududlarini yong'in va boshqa tUSDagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish. Bu jarayonda nafaqat soha vakillari, balki har bir fuqaro, egallab turgan vazifasidan qat'i nazar, favqulodda vaziyatlarning oldini olish, fuqaro muhofazasini ta'minlash ishlarida faol hamda tashabbuskor bo'lmog'i, har doim, har yerda ogoh, hushyor holda ish yuritmog'i lozim. Negaki, o'z uyimiz, oilamiz, qo'rg'onimiz xavfsizligi, tinchligi va xotirjamligi, avvalo, o'zimizga bog'liq.

Asror TURSUNOV,
Chirchiq shahar Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi katta o'qituvchisi.



Buxoro viloyati FVBda "Mard, jasur va sadoqatli vatanparvarlarni tarbiyalash – maktab ostonasidan boshlanadi!" shiori ostida "Ochiq eshiklar" kuni tashkil etildi.

"OCHIQ ESHIKLAR" KUNI

Tadbirda O'zbekiston Yoshlar ittifoqi viloyat kengashi hamda umumta'lim maktablari "Yosh qutqaruvchi" klubi a'zolari ishtirok etdilar. Soha xodimlari tomonidan aholida milliy armiyadan faxrlanish va unga bo'lgan ishonch hissini oshirish, yoshlar qalbidan ona-yurtga cheksiz mehr-muhabbat hamda sadoqat tuyg'ularini shakllantirish, vatanparvarlik, xalqparvarlik fazilatlarini yuksaltirishdan iboratligi ta'kidlandi. Shuningdek, tadbir davomida yong'in-qutqaruv asbob-anjomlari ham namoyishi tashkil etildi. Yoshlar ularni ko'zdan kechirib, ulardan foydalanib ko'rishar ekan, bu kasbning mashaqqatini his qildilar.

Farid TUROBOV,
Buxoro viloyati FVB bo'lim boshlig'i, kapitan.



XAVFSIZLIK OMILI

Dehqonobod tumanida yashovchi aholi o'rtasida quturish, qrim-kongo, botulizm va ovqatdan zaharlanish kabi sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlarini, uchrashuv va davra suhbatlari, o'quv va maxsus-taktik o'quv mashqlari muntazam ravishda o'tkazilib, ushbu kasalliklarga qarshi kurashish bo'yicha yo'riqnoma, tushuntirish, ko'rsatma va targ'ibot ishlarini tashkil etilmog'ida.

O.YULDASHEV,
Dehqonobod tuman FV bo'limi bo'linma boshlig'i, mayor.

Yashnobod tumani "Fazogir" mahallasiga birlashtirilgan tuman FV bo'limi xodimi boshchiligidagi Toshkent shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bosh boshqarmasi rahbari Sh.Inagamov hamda tuman hokimining o'rinbosari ishtirokida mahalladagi 14 – 30 yoshgacha bo'lgan 7 toifadagi yoshlar bilan suhbat olib borildi.

Akbarali HAYITBOYEV,
Yashnobod tumani FV bo'limi inspektori, katta leytenant.

MASHG'ULOT

Namangan viloyati FVBda bo'lib o'tgan "Ma'naviyat va ma'rifat" mashg'ulotida Namangan Harbiy prokurori adliya polkovnigi Davlatyor Rahmonov tomonidan huquqbuzarliklar va jinoyatchilik holatlarining oldini olish bo'yicha tushunchalar berildi.

Viloyat IIB YHXB axborot gu-ruhi katta mutaxassisi Botirjon Boymirzayev xizmat va shaxsiy avtotransportlaridan foydalanishda va boshqarish davrida yo'l harakati qoidalariga rioya etish, shuningdek, yo'l-transport hodisalarining oldini olish bo'y-

cha tushunchalar berib o'tdi. Shundan so'ng mavzuga oid videorolik namoyish etildi.

Abdurahmon HAMIDOV,
Namangan viloyati FVB SHXB boshlig'i, podpolkovnik.

EHTIYOT BO'LING!

Tabiiy gaz har tomonlama foydali bo'lgani bilan insonlarning ozgina e'tiborsizlikka yo'l qo'yilishi bilan ularga katta tashvishlar keltirishi mumkin. Bunday holatlarning oldini olish maqsadida yong'in xavfsizligi xizmati doimo kurashib kelmoqda. Soha xodimlari fuqarolarga xilma-xil targ'ibot ishlarini o'tkazib, olov o'z jilovidan chiqib ketganda qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini inobatga olgan holda nimalarga rioya qilishlarini tushuntirib o'tadilar. Ammo hamma joyda ham gazdan oqilona foydalanilmog'ida, deb aytib bo'lmaydi. Eng achinarlisi, barcha tushuntirish ishlariga qaramay, tabiiy gazdan foydalanishda olovni nazoratsiz qoldirish, rezina shlang orqali ulab foydalanish sababli ko'ngilsiz voqealar sodir bo'lyapti.

X.JO'RABAYEV,
Toshkent shahar FVB Tezkor bo'lim boshlig'i, podpolkovnik.

ESLATMA

O'rtachirchiq tumani FV bo'limi harbiy xizmatchilari tomonidan "Tuyabo'g'iz" suv omborida xavfsizlikni ta'minlash maqsadida profilaktik ishlar amalga oshirildi. O'rganishlar davomida kichik hajmi kemalarning haydovchilari bilan mavsum oldi suhbatlar o'tkazilib, kemalarning sozligi va ular turadigan inshootlardan xavfsiz foydalanish bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borildi.

F.MAHMUDOV,
O'rtachirchiq tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, kapitan.
A.ZOKIROV, P va NB
katta inspektori, leytenant.

TARG'IBOT

"Yong'indan ogohlik" umum-milliy kampaniyasi doirasida Kasbi tumanida o'tkazilgan tadbirlarda aholiga yong'in, gaz va havo aralashmasining chaqnashi, is gazi va ovqatdan zaharlanish bilan bog'liq ko'ngilsiz hodisalarining oldini olish, birlamchi yong'in o'chirish vositalaridan foydalanish hamda favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish tartibi bo'yicha tushunchalar berilib, eslatma va bukletlar tarqatildi. Shuningdek, mutaxassislar

tomonidan yangidan barpo etilayotgan qurilish obyektlaridagi quruvchilarga "Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash – eng ustuvor vazifa" tamoyili asosida profilaktik tushuntirish ishlarini ham olib borildi.

Sanjar HAYDAROV,
Kasbi tumani FV bo'limi boshlig'i, kapitan.
Sherzod KELDIYEV,
Qashqadaryo viloyati FVB inspektori, podpolkovnik.

Маърифат соати

ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДАГИ
МУҲИМ МУАММОЛАР

Бугунги инсоният турли хил ғоялар ва сиёсий курашлар бутун жаҳон миқёсида авж олаётган, ғоявий қарама-қаршиликлар кескинлашаётган, ҳаёт шиддат билан ўзгариб бораётган глобаллашув даврида яшамоқда. Ўтган асрнинг 70 – 80 йилларида тор доирадаги геосиёсий, макроиқтисодий ва сиёсий-мафкуравий адабиётларда пайдо бўлган бу атама бугун кишилар ўртасидаги оддий мулоқот мавзусига айланишга улгурди.



Эндиликда халқаро хавфсизликка таҳдид солувчи манбалар сифатида давлатларнинг ҳарбий блоклари эмас, турли куч марказлари томонидан муттасил кўмак олиб турувчи ғайриқонуний ташкилотлар фаолият кўрсатмоқда. Уларнинг барчаси глобаллашувнинг кенг қулоч ёзиши учун ҳал қилувчи аҳамият касб этаётганлигини тушуниш унчалик қийин эмас. Истаймизми-йўқми, мамлакатимиз ҳам глобаллашув жараёнидан ташқарида эмас. Бугун халқаро муносабатлар тизимида ўз ўрнига, ўз сўзига эга бўлган, демократик бозор ислохотларини ва иқтисодиётни либераллаштиришни янада чуқурлаштириш, халқаро ҳам-жамиятга тобора кўпроқ интеграциялашиш, кучли фуқаролик жамияти барпо этиш йўлидан бораётган Ўзбекистон учун глобаллашув жараёнининг қатор ижобий хусусиятлари мавжудлигини инкор этиб бўлмайди. Лекин мазкур жараённинг салбий хусусиятлари ҳам борлигига, айниқса, жаҳонда кучлар нисбатини қайта кўриб чиқишга бўлган уринишлар тобора кучайиб бораётган бир шароитда стихияли ривожланиб бораётган глобаллашув жараёни унинг ташаббускорлари ва ҳомийлари қўлида таққослаб бўлмайдиган кучли қурол вазифасини бажараётганлигига ҳам эътиборсизлик билан қараб бўлмайди. Глобаллашув жараёнида ижтимоий-иқтисодий шароитда кечаётган муаммоларни турли геосиёсий кучларни ўзларининг мақсадлари йўлида танланган мамлакатларни қарам қилиб олиш учун, аввало, халқнинг қадриятларини, миллийлигини маънавиятдан жудо қилишга эътибор қаратадилар. Афсуски, гўё барча миллат ва элатлар маданиятларининг қоринмаси бўлиши ва барча томонидан бирдек қабул қилиниши лозим бўлган “оммавий маданият” қисқа вақт ичидан

кишилик жамиятини ичидан емиришга қодир кучга айланиб улгурди. Ёшлар орасида тақлидчилик, ғарбона идеалларга кўр-кўрона эргашиш каби ҳолатлар ҳам кузатилмоқда.

Бунда хорижда кенг тарқалган ахлоқий ва маънавий юриш-туриш андозаларининг кинофильмлар, мода ва турли хил рекламалар орқали ёшларимизнинг онгини чулғаб олаётганлигини сезиш қийин эмас. “Оммавий маданият” ниқоби остида ахлоқий бузуқлик ва зўравонлик, индивидуализм, эгоцентризм ғояларини тарқатиш, керак бўлса, шунинг ҳисобидан бойлик ортириш, бошқа халқларнинг неча минг йиллик анъана ҳамда қадриятлари, турмуш тарзининг маънавий негизларига беписандлик, уларни кўпоришга қаратилган хатарли таҳдидлар одамни ташвишга солмай кўймайди. Оқибатда, ёшлар ўртасида китоб ўқишдан кўра компьютер ўйинлари олдидан вақти ўтказиш, мазмунан саёз бўлган турли жанрдаги фильмларни томоша қилиш одат тусига кириб бормоқда. Ёт маданият қадриятларини ўзида ифода этаётган “оммавий маданият” ёшларимизда индивидуализм, эгоцентризм, андишасизлик, беҳаёлик ва зўравонлик, миллий қадриятларга ва ижтимоий манфаатларга беписандлик билан муносабатда бўлиш каби иллатларни келтириб чиқармоқда. “Оммавий маданият”, асосан, ёшларга ўз таъсирини ўтказиши. Чунки унинг ҳомийлари катта ёшдаги кишиларга нисбатан ёшларнинг онгу шуурини эгаллаб олиш осонроқ эканлигини яхши англайдилар. Агар улар мақсадларига у ёки бу даражада эришгудек бўлсалар, бунинг оқибатини бартараф этиш учун бир неча ўн йилликлар, ҳатто асрлар керак бўлади, бу эса, бутун инсоният тақдири жуда катта хавф остида қолиши мумкинлигини

англатади. Шу ўринда айтиш лозимки, аксарият ёшларимиз бўш қолди дегунча дарров қўл телефони билан машғул бўлиши оддий ҳолга айланиб қолди. Қандайдир ўйин ўйнайди, кўшиқ эшитади, фильм томоша қилади, ижтимоий тармоқлардаги турли-туман маълумотлар билан танишади. Бунинг нимаси ёмон, техника даври, тараққиёт дерсиз?

Тўғри, бунинг ёмон томони йўқ. Тан олишимиз керак, замонавий ахборот-коммуникация технологиялари, айниқса, интернет тараққиёт даражамизни бир неча поғонага кўтарди, узоғимизни яқин, ишимизни энгил қилди. Лекин ёшларимизнинг уяли телефонга асир бўлиб қолаётгани, интернет ва ижтимоий тармоқлардан, улардаги маълумотлардан оқиллона фойдаланишлари борасида жиддий ўйлаб кўришимиз керак бўлган жиҳатлар талайгина. Интернет тармоқларида алдов ва ғаразли мақсадлар йўлида тарқатилаётган турли маълумотларга айрим ёшларимиз осонгина ишонмоқда. Натижада оқни қорадан, ях шини ёмондан ажрата олмаб, кимларнингдир қурбонига айланмоқда. Бу каби ҳолатлар юзага келишининг асосий сабаби юртимизга оммавий тарзда кириб келаётган, менталитетимизга ёт сериаллар, видеоклиплар, интернет, қўл телефонларидаги видеоёзувлар, умуман, глобаллашув даврининг турли “маҳсулот”ларидир.

Дарҳақиқат, муайян ақидалар, фикр ҳамда ғоялар замон танқидига учраганда ёки янги пайдо бўлган ижтимоий-сиёсий кучлар томонидан инкор этилганда, давр талабига жавоб берадиган ғоя ва мафкура тўла шаклланиб улгурмаган ҳолларда жамиятда ғоявий бўшлиқ вужудга келади. Бундай шароитда ғоявий бўшлиқ

ни бунёдкор ғоялар билан тўлдириш ҳамда ҳарбийлар онгида мафкуравий иммунитетни шакллантириш масаласига жиддий аҳамият қаратишга тўғри келади. Чунки тарбия масаласига ўз вақтида жиддий эътибор қаратилмаса, тузатиб бўлмас даражадаги хатликларга олиб келиши мумкин. Ёш авлод ўртасида соғлом турмуш тарзини тарғиб қилиш, ёшлар онгини ёт ғоялар таъсиридан асраш, ахборот хуружларига қарши мафкуравий иммунитетни шакллантириш, жиноятчилик, ҳуқуқбузарлик, гиёҳвандлик, диний экстремизм ва терроризм иллатларининг олдини олишга кўмаклашиш ҳамда ёшларда ватанпарварлик туйғусини юксалтириш лозим. Ахборот глобаллашуви туфайли турли мафкуравий таъсирлар, айниқса, ёшлар тафаккурини эгаллашга қаратилган ғаразли хуружлар тобора кучайган даврда турли хатарларга қарши доимо сергак, огоҳ, ҳушёр бўлиб яшаш ҳар биримизнинг бурчимиздир. Юртимизда ёш авлоднинг маънавий-ахлоқий тарбиясини тўғри шакллантириш, уларни турли таҳдидлардан ҳимоя қилиш, онгу тафаккурини юксалтириш маънавий-маърифий соҳаларда амалга оширилаётган ислохотларнинг энг асосий йўналишларидан биридир. Тарбия борасида таниқли маърифатпарвар Абдулла Авлонийнинг “Тарбия биз учун ё ҳаёт – ё мамот, ё нажот – ё ҳалокат, ё саодат – ё фалокат масаласидир” деган сўзларини асло унутмаслигимиз лозим. Шунинг учун ёшлар онгини эгаллашга уринаётган мафкуравий хуружларга қарши курашиш, халқимизнинг миллий қадриятларини, маънавийтимизни асраб-авайлаш давлатимизнинг доимий диққат-эътиборида бўлиши табиийдир. Шунга кўра, ижтимоий ҳаётнинг барча соҳалари сингари, таълим, маънавият, маданият ва спорт, меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш соҳаларини ривожлантиришга қаратилган изчил чора-тадбирлар амалга оширилмоқда. Глобаллашув жараёнида тобора кучайиб бораётган маънавий хуружларга қарши курашиш жуда долзарбдир. Ёш авлодга миллий истиқлол ғоясини сингдиришда ҳар бир ота-онанинг роли ҳам жуда муҳим ҳисобланади. Ота-оналар ўз фарзандларининг мактабгача тарбияси, уларнинг руҳий-маънавий тараққиётида қанчалик муҳим аҳамият касб этиши, бу давр узлуксиз таълим ва тарбиянинг муҳим босқичи эканини англаб етишлари зарур. Бунда оиланинг таълим муассасалари тизимига изчил уйғунлашувга эришиш мақсадга мувофиқ бўлади. Демак, ота-она ёш авлодга бевосита таълим берувчи, мафкуравий тарбиянинг асосий ўчоғи саналмиш барча таълим муассасалари билан ҳамкорликда мазкур долзарб вазифани амалга оширишга масъулдир. Шунга кўра, ижобий натижага эришиш учун нафақат педагоглар, ҳуқуқ-тартибот идоралари, балки ёшлар билан ишловчи ташкилотлар, кенг жамоатчилик ҳамкорликда иш олиб бориши, хусусан, тушунтириш ва тарғибот ишларини кучайтириш лозим. Бу жараёнда барчамизнинг огоҳ бўлишимиз, Ватанимизнинг келажаги, тараққиёти учун қайғуришимиз жуда муҳим. Айниқса, таълим-тарбия муассасалари ва оммавий ахборот воситалари глобаллашув ва “оммавий маданият”нинг салбий хуружларига қарши турувчи энг асосий қалқон эканликларини унутмасликларимиз лозим.

Саҳифани
Анвар ҚОБИЛОВ
тайёрлади.

ЦУНАМИЛАР ТАРИХИДАН: ЙЎҚОТИШЛАР ВА ХУЛОСАЛАР



10-ўрин – Аляскадаги zilzila ва цунами

1964 йил март ойида Аляскада zilzila рўй берди. Ернинг 9,2 балли тебраниши натижасида пайдо бўлган цунами тўлқинининг баландлиги жойларда 30 метрга етди. Натижада Шимолий Американинг бутун ғарбий қирғоқ чизиғи харитадан ўчирилди. 121 нафар одам ҳаётдан кўз юмди.



9-ўрин - Самоадаги цунами

2009 йил 29 сентябрь куни эрта тонгда орол аҳолиси 8,1 магнитудали zilzilани ҳис қилди. 15 метр баландликдаги цунами тезда бутун инфратузилмани вайрон қила бошлади. 189 нафар киши ҳалок бўлди.

8-ўрин - Окуширидаги цунами

1993 йил 12 июлда Японияда 7,8 магнитудали zilzila юз берди. Хукумат аҳолини яқинлашиб келаётган табиий офат ҳақида огоҳлантириш ва уларни эвакуация қилишга ёрдам бериш учун барча чорани кўрди. Аммо кичик Окушири ороли табиий тузоққа тушиб қолди. Zilzila бошлангандан бир неча дақиқа ўтгач, уни 30 метр баландликка кўтарилган тўлқинлар ювиб кетди. 197 нафар аҳоли ҳалок бўлди.

7-ўрин - Тумакодаги цунами

1979 йил декабрь ойида Колумбия яқинида 8,2 магнитудали zilzila содир бўлди. Ундан кейин вайронкор цунами ёпирилди. Баъзи жойларда тўлқинлар баландлиги 25 метрга етган. 259 нафар киши ҳалок бўлди.

6-ўрин - Жавадаги цунами

Ява оролида 2006 йилда кечган цунамидаги тўлқин баландлиги

Цунамиларга интенсивлигига қараб, 1 дан 6 гача бўлган ораликда балл белгиланади. 1 балл – энг паст кўрқадиган ҳеч нарса йўқлигини аңлатади ва тўлқинлар фақат махсус асбоблар томонидан қайд этилади.

5 балл – баландлиги 8 метрдан 23 метргача бўлган жуда катта тўлқинлардир. Баландлиги рекорд қийматларга етадиган нотўғри тўлқинлар 6 балл билан баҳоланади.

Қуйида келтирилган вайронкор цунамилар 10 талиги тарихда кечган улкан йўқотишлардан керакли хулосалар чиқаришни ўргатади, албатта.

7 метрни ташкил қилган. Цунами Индонезия оропининг катта худудини вайрон қилган. Расмий маълумотларга кўра, 668 нафар киши ҳаётдан кўз юмган, 9 мингга яқин киши тиббий ёрдамга муҳтож бўлган.

5-ўрин - Папуа-Янги Гвинеядаги цунами

1998 йил 17 июлда қирғоқда 7 магнитудали хавфли zilzila содир бўлди. 15 метр баландликдаги тўлқинлар аҳоли яшайдиган худудни даҳшатли куч билан қоплади. Катта вайронагарчилик юз берди ва жами 2183 нафар киши ҳалок бўлган.

4-ўрин - Моро кўрфазидидаги цунами

1976 йил 17 август куни Филиппинда эрта тонгда кучли zilzila содир бўлди. Zilzila натижасида цунами юзага келди. Тўлқинларнинг баландлиги тахминан 9 метр эди. Маҳаллий аҳоли бундай офат келишини хаёлига ҳам келтирмаганди. 5000 киши ҳалок бўлди, 2200 киши изсиз ғойиб бўлди, 9500 киши жарланди, 90 мингга яқин одам бошпанасиз қолди.

3-ўрин - Валдивиядаги цунами

1960 йилда Марказий Чилининг жанубий қирғоқларида 9,5 магнитудали даҳшатли zilzila қайд этилди. Бу ҳол тўлқин баландлиги 10 метрдан иборат цунами ёприлиши ҳамда

вулқон отилишига олиб келди. Тўлқинлар Япония қирғоқларига етиб борди ва кўплаб одамларнинг ҳаётига зомин бўлди. Офат оқибатида жами 6000 киши ҳалок бўлди.

2-ўрин - Тоҳукудаги цунами

2011 йилда Японияда содир бўлган цунами оқибатлари даҳшатли эди.

9 магнитудали zilzila цунами келтириб чиқарди. Тўлқинларнинг баландлиги 11 метр, баъзи жойларда эса 40 метрга етган. Вайрон қилувчи сув оқими ўз йўлидаги ҳамма нарсани бузди ва нажот учун ҳеч қандай имконият қолдирмади. 25 минг киши ҳалок бўлди. “Фукусима-1” атом электр станцияси жиддий зарар кўрди. Бу эса яқин атрофдаги худудларнинг радиациявий ифлосланишига олиб келди.

1-ўрин - Ҳинд океанидаги цунами

2004 йил 26 декабрда Ҳинд океанини ўраб олган мамлакатларда мисли кўрилмаган кучли цунами ҳақидаги хабар бутун дунёни ларзага солди. Кучли сув оқими 14 та давлатга, энг кўпи Индонезия, Шри-Ланка, Ҳиндистон ва Таиланд давлатларига таъсир кўрсатди. Сув ости zilzilасининг кучи 9,3 баллини ташкил этди. Тўлқинлар 30 метргача кўтарилди. 230 минг киши ҳалок бўлди.

Интернет материаллари асосида Фахриддин РАҲИМОВ тайёрлади.



Vaziyat

газетаси

Муассис:
Ўзбекистон
Республикаси
Фавқулодда
вазирлар
вазирлиги

Бош муҳаррир
Азамат СУЮНОВ

Газета таҳририят
компьютерхонасида
саҳифаланди.

Газета ҳар ҳафтанинг
пайшанба куни чиқади.
Топшириш вақти – 15.00
Топширилди – 15.00

Навбатчи:
А.ҚОБИЛОВ

Таҳририятга юборилган
материаллар қайтарилмайди
ва изоҳ берилмайди.
Муаллифлар фикри таҳририят
нуқтаи назаридан фарқлиниши
мумкин.

Газетадан олинган материаллар
манбаси кўрсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон Матбуот ва
ахборот агентлигида 2007 йил
3 январда 0096-сон рақам
билан рўйхатга олинган
ISSN 2091-5292

Таҳририят манзили:
100084, Тошкент шаҳри,
Юнусобод тумани,
Ш.Рашидов кўчаси, 17-А уй.
Тел.: (71) 212-69-56
Телеграмм: (90) 016-87-67

Индекс:
якка обуначилар ва
ташкilotлар учун – 382

Газета “BUSINESS PRINT DESIGN”
босмахонасида босилди.
Манзил: Тошкент шаҳри,
Сўғалли ота кўчаси, 5-уй.
Буюртма №
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т.
Адади – 6000 нуска